

METAFORANING TILSHUNOSLIKDA NAMOYON BO‘LISHI VA UNING ILMIY AHAMIYATI

Maftunaxon Abduolimova

Farg‘ona davlat universiteti EFL/ESL instruktori
m.n.abduolimova@pf.fdu.uz

ANNOTATSIYA

Tilshunoslikda metafora haqida yetarlicha izlanishlar olib borilgan bo‘lsa ham, unga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Chunki tilda so‘zlardan foydalanish uchun so‘zlarning o‘z ma‘nosi bilan birga ularning majoziy ma‘nolarini ham bilish zarurdir. Bu esa, o‘z navbatida tilshunoslikda metaforani har tomonlama o‘rganib tadqiq etish zaruriyati borligin anglatadi. Zero, tilshunoslar metafora ilmi haqidagi izlanishlarni metaforaning tilshunoslikda namoyon bo‘lishi, uning tildagi ahamiyati bilan bog‘lashadi.

Kalit so‘zlar: metafora nazariyasi, metonomiya, o‘xshashlik, til birliklari, ko‘chim, majoziy ma‘no, so‘zlardagi uslubiy bo‘yoqdorlik.

АННОТАЦИЯ

Хотя исследований метафоры в лингвистике много, интерес к ней растет. Потому что для того, чтобы использовать слова в языке, необходимо знать не только значение слов, но и их переносные значения. Это, в свою очередь, означает, что в языкознании возникает необходимость комплексного изучения метафоры. Действительно, изучение метафоры лингвисты связывают с проявлением метафоры в языкознании и ее значением в языке.

Ключевые слова: теория метафор, метонимия, сходство, языковые единицы, переносное значение, методологическая окраска слов.

ABSTRACT

Although there is a lot of research on metaphor in linguistics, there is a growing interest in it. Because in order to use words in the language, it is necessary to know not only the meaning of words, but also their figurative meanings. This, in turn, means that in linguistics there is a need for a comprehensive study of metaphor. Indeed, linguists associate the study of metaphor with the manifestation of metaphor in linguistics and its importance in language.

Keywords: metaphor theory, metonymy, similarity, linguistic units, figurative meaning, methodological coloring of words.

KIRISH

Nutqda o'z fikrimizni bayon etish uchun tildagi barcha birliklar (tovush, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi va gap) dan foydalanamiz. Leksik birliklar ya'ni, so'zlarni tilshunoslikning bir qismi sifatida o'rganish, so'zlarni nutqdan tashqaridagi o'z ma'nosi bilan birga ularni nutqda ifodalagan uslubiy ma'nolarini ham o'rganish zaruriyatini ko'rsatadi. So'zlarni o'z ma'nosi bilan birga ko'chma ma'noda qo'llash ham nutq ifodaliligini ta'minlash uchun tuganmas manbadir. Nutqda deyarli barcha asosiy holatlarda ko'chma ma'no emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik kasb etadi. Nutqda so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular ko'chimlar nomi bilan umumlashtiriladi. Ko'chimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya'ni ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'xshashlik, umumiylik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylilik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi¹.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ko'chma ma'noli so'zlar qanday ma'no asosida ko'chayotganligiga qarab

- Metafora;
- Metonomiya;
- Sinekdoxa
- Vazifadoshlik;
- Kinoya (tag ma'no). kabi turlarga bo'linadi:

Nutqimizda eng keng tarqalgan va ko'p qo'llaniladigan ma'no ko'chish usuli metaforadir. Metafora narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik asosida nom (so'z)ning ko'chishidir. Metafora (yunoncha **metaphora- ko'chirish**) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chishidir². Masalan: *fan cho'qqisi, yurtimiz quyoshi, dalaning etagi...*

Masalan, tandirning og'zi birikmasida og'iz so'zining ma'nosi odam yoki hayvon og'ziga tashqi o'xshashligi asosida vujudga kelgan. Metaforalarni o'rganish qadimgi davrlardan buyon tilshunoslarning diqqat markazida bo'lgan mavzu hisoblanadi. Antik davrlarda metaforani olamni anglashning aloxida usuli va vositasi sifatida ko'rsatish Aristotel (shuningdek Sitseron) ga taalluqli g'oyadir³. Bu davrda ma'no ko'chimlarini tasnif etishdagi ilk qadamlar qo'yildi: metaforaning ismlar

¹Mahmudov.N., Odilov.Y., Ziyodullayeva.G., O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasarlari o'quvchilari uchun darslik.-T,2018, 79-b.

² Nurmonov.A., Sobirov.A., Qosimova.N., Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T: Ilm ziyo., 2013y,190-b.

³ Дорофеева А.А. Что скрывается в тайне метафоры? (О подходах к изучению метафоры западными учеными в XX в.) / Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. № 4.

(umuman soʻzlar) qatoridagi oʻrnini aniqlash, metaforaning “noodatiy” fenomen tabiatini tekshirish singari masalalar shular qatoridandir⁴. D. F. Sitseron, Kvintiliandan farqli ravishda, ilk marta metafora orqali buyumlar toʻgʻrisidagi maʼlumotni aniq va ravshan yetkazish mumkinligini payqadi. Metaforaning vazifaviy mezonini oʻrnida metaforaning qoʻllanish maqsadlarini koʻrgan Kvintilian, “Ism yoki feʼl oʻz oʻrnidan u yetishmayotgan yoxud undan afzal boʻlmagan nomlar oʻrniga koʻchiriladi”⁵ deb hisoblaydi. Antik metaforologiyada metafora nom koʻchishining har qanday turi (Aristotel); metonomiyaning zidi (Kvintilian) sifatida qaralib, u nutqimizga nominativ, baxolovchi va dekorativ maʼnolar berishini tavsiflagan. Garchi Aristotelning qoʻlyozmalarida referensiya, mohiyat, haqiqat tushunchalari deyarli tilga olinmagan boʻlsa ham, uning metafora va xissiy bilish toʻgʻrisidagi konsepsiyasi oʻz davri hamda hozirgi davr uchun ham modernistik gʻoya boʻlib qoladi.

Metafora qanchalik yangi, shunchalik ifodali boʻladi. Mohir soʻz ustalari oʻz asarlarida soʻzlarni metaforik maʼnoda qoʻllash orqali ifodali, obrazli nutqning goʻzal namunalarini yaratadilar.

Manglavi tirishar zinapoyaning, Panjara kuvlaydi misoli chiltor, Terlab ketganini koʻrsang oynaning... Hamma narsa seni kutar intizor. (Iqbol Mirzo)

Narsa va hodisalar oʻrtasidagi oʻxshashlik (koʻchim usuli) turli asosda boʻlishi mumkin:

1. Ikki predmet oʻrtasida shakliy oʻxshashliklar tashqi koʻrinish asosida:

odamning ogʻzi (oʻz maʼnosida)

tandirning ogʻzi (koʻchma maʼnoda)

odamning qulogʻi (oʻz maʼnosida)

qozonning qulogʻi (koʻchma maʼnoda).

2. Ikki predmet qayerda joylashishi boʻyicha maʼno koʻchishi:

itning dumi (oʻz maʼnosida)

samolyotning dumi (koʻchma maʼnoda).

⁴ МАХМАРАЙМОВА ШОХИСТА ТУХТАШЕВНА “ЎЗБЕК ТИЛИ МЕТАФОРЛАРИНИНГ АНТРОПОЦЕНТРИК ТАДҚИҚИ” ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ ДОКТОРИ (DSc) ДИССЕРТАЦИЯСИ АВТОРЕФЕРАТИ, Самарқанд – 2020, 15-б.

⁵ Quintilianus M. Fabius. Institutiones oratoriae. Libri duodecim. Lipsiae, 1887. (VIII, 6, 6).

Nutq jarayonida metaforalardan o'rinli foydalanish nutqimizni ta'sirchan, jozibali qiladi. So'zlovchining tinglovchilarga badiiy-estetik qobiliyatini namoyon etadi.

Metafora **narsa, belgi, harakat** o'rtasidagi nisbiy o'xshashlikka asoslanadi:

1	narsa	<i>to'nni yiqasi (o'z ma'nosi)</i> <i>daryoning yiqasi (ko'chma ma'no)</i> <i>ko'ylakning etagi (o'z ma'nosi)</i> <i>tog'ning etagi (ko'chma ma'no)</i>
2	belgi	<i>qattiq yong'oq (o'z ma'nosi)</i> <i>qattiq sovuq (ko'chma ma'no)</i> <i>qattiq uyqu (ko'chma ma'no)</i> <i>yumshoq non (o'z ma'nosi)</i> <i>yumshoq ovoz (ko'chma ma'no)</i> <i>Uyi supurilgan, toza. (o'z ma'nosi)</i> <i>Do'stimning qalbi pok, toza. (ko'chma ma'no)</i>
3	harakat	<i>Mungli kuy yurakni <u>tirnar edi</u>.</i> <i>Yo'l ochmoq.</i> <i>Otam yetimlarni <u>boshini siladi</u>.</i> <i>Bola onasining oldiga tushib <u>pildirab ketdi</u>.</i> <i>Do'stlarim bilan <u>qalinlashib ketdim</u>.</i>

Metaforalarga juda yaqin yana bir vosita bu o'xshatishdir. O'xshatish ham ko'chma ma'no ustiga qurilishi bilan metaforalarga o'xshash bo'lib, ular yordamida shaxs va predmetlar bir-biriga o'xshatiladi.

Masalan: *Adashgan it kabi, Furqat qayon borgun bilolmasman.*

Lekin o'xshatishlarda metaforalardan farqli o'laroq –*dek, -day, -simon, -vash, -namo, kabi, singari, yanglig', misoli, o'xshash* kabi vositalar qo'llaniladi. Masalan: *Ulug'bek – yurtimiz quyoshi. (metafora)*

Ulug'bek misoli quyosh. (o'xshatish)

Agar adabiyotshunoslikda ham metafora va o'xshatishni bir-biridan farqlaydigan bo'lsak, **metafora** **istiora** san'atini hosil qiladi, *o'xshatish* esa, **tashbeh** san'atini hosil qiladi.

Metaforada ma'no ko'chishi turlicha yo'llarda amalga oshadi:

- Inson aʼzolarining nomi boshqa narsalarga koʻchadi. *Yer yuzi, kitobning beti, shishaning ogʻzi, choynakning burni, dutorning qulogʻi.*

Masalan : bosh, yuz soʻzlari koʻchma maʼnoda qoʻllanilishi mumkin. *Otam yetimlarning boshini siladi (A. Qahhor).* Ushbu gapda bosh soʻzi majoziy maʼnoda yaʼni boshini silamoq unga yordam bermoq, gʻamxoʻrlik qilmoq maʼnosida koʻchim turini hosil qilyapti. *Koʻchaning boshidan kimdir koʻrinardi.* Ushbu misolda esa, bosh soʻzi qayerda joylashganligiga koʻra koʻchma maʼnoda qoʻllanilyapti. Chunki odamning boshi ham tananing eng yuqori qismida joylashadi, koʻchaning ham eng yuqori qismi uni boshi hisoblanadi.

- Inson kiyimlari qismlarining nomi boshqa narsalarga koʻchadi. *Togʻning etagi, daryoning yoqasi, eshikning tugmasi.*

Masalan: ***Yoʻlchining soʻzlariga hayratlanib, chol yoqasini ushladi.*** (Oybek). Ushbu gapda chol yoqasi bu yerda inson kiyimini yoqasi nazarda tutilganligi uchun oʻz maʼnosida qoʻllanilyapti. *Daryo yoqasidan qoʻshin bostirib kelayotgani aniq edi.* Ushbu gapda daryo yoqasi koʻchim turini hosil qilyapti.

- Qush, parranda, hayvon aʼzolarining nomi boshqa narsalarga koʻchadi.

Masalan: *Futbolchilarimiz chap qanotdan hujum uyushtirdilar. Varrakning dumi osmonda chiroyli tebranardi.* Ushbu gaplarda qanot va dum soʻzlari koʻchim turini hosil qilmoqda.

- Harakat-holat (feʼl), belgi-xususiyat (sifat) lar ham oʻxshashlik belgisiga koʻra metafora asosida maʼno koʻchishiga uchraydi.

Masalan gapni gapga ulamoq, osmon koʻz yoshini toʻkdi (inson koʻz yosh toʻkadi lekin yomgʻir majoziy maʼnoda osmon koʻz yoshi maʼnosini ifodalayapti), xazon boʻlmoq (gʻamga botmoq, maxzun boʻlmoq), shirin xayol (yoqimli xayol), sovuq xabar (yoqimsiz xabar) kabi.

Shirin: shirin olma (oʻz maʼnosida) - shirin muomla (yoqimli muomala, yoqimli suhbat, metafora asosida maʼno koʻchishi);

Chiroyli: chiroyli guldasta (oʻz maʼnosida) - chiroyli muomala (metafora asosida maʼno koʻchishi);

Qurimoq: Koʻl quridi (oʻz maʼnosida) - Izi quridi (yoʻqoldi, ketdi, metafora asosida maʼno koʻchishi);

Erimoq: Muz eridi (oʻz maʼnosida) - Onaning koʻngli eridi (majoziy manoda onaning koʻngli yumshab qilgan ayblarini, xatolarini kechirdi, rahm qildi, metafora asosida maʼno koʻchishi).

Sifatlarda maʼno koʻchishi boʻlganda sifatning bir maʼno turi boshqa maʼno turini ifodalaydi. Masalan, *Voy manavi bolaning shirinligini qarang.* Ushbu gapda

shirin - maza-ta'mni bildiruvchi sifat, xususiyat bildiruvchi sifat ma'nosini bildirgan. Yoki, *Uning fe'li tor*. Ushbu gapda ham tor so'zi hajm bildiruvchi sifat hisoblansa ham, gapda xususiyat bildiruvchi sifat ma'nosini ifodalashga xizmat qilyapti⁶.

➤ Kishilarga qo'yilgan ismlar ham metafora asosida qo'yiladi.

Masalan: Yo'lbars, Bo'riboy, Qoplonbek, Burgutbek, Lochinoy, Gulnora, Gulchehra, Feruza, Yoqutoy, Asalxon, Oyxon, Arslon, Bobur, Gilosxon, Charos, Ozoda.

➤ Qovun navlari, gullarga, qushlarga, hashoratlarga qo'yiladigan nomlar ham metafora asosida qo'yiladi.

Masalan: obinovvot (mazasi o'xshaydi), kampirchopon (tashqi ko'rinishi o'xshaydi), umriboqiy (uzoq vaqt saqlanishi o'xshaydi), bo'rikalla (vazni o'xshaydi).

➤ Kecha-kunduzga xos narsa-belgi nomlari metafora asosida ko'chadi.

Yorug'lik, qorong'u...

➤ Fasl nomlari va fazo jismlari

Bahor, qish, quyosh, yulduz...

➤ Hayvon, parranda, hasharot yoki ularning a'zolari

tulki, lochin, dum, qanot...

Futbolchilarimiz chap qanotdan hujum uyushtirdilar.

Varrakning dumi osmonda chiroyli tebranardi.

➤ O'simlik yoki uning biror qismining nomi va navi

chinor, tikan, ildiz, tomir, obinovvot (qovun navi), kampirchopon (qovun navi), itog'iz (gul turi), karnaygul (gul turi)...

➤ Qurol yoki boshqa predmet nomlari

kamon, o'q, tosh, latta...

➤ Harorat bildiruvchi so'zlar

sovuq, issiq, o't...

➤ Tabiat hodisalari

to'fon, to'lqin...

➤ Belgi bildiruvchi so'zlar

achchiq, shirin, asal, zahar...

➤ Qimmatbaho jism nomlari

oltin, kumush...

➤ Afsonaviy-diniy tushunchalarni bildiruvchi so'zlar ham ko'chirilganda metafora hosil bo'ladi.

⁶ Erkaboyeva.N., O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami.-T.: "LRSSON PRESS", 2017,87-88 b.

azroil, jannat, do 'zax...

- Odamga xos xususiyatlar, harakat-holatlar jonli va jonsiz narsaga ko'chirilganda ham metafora hosil bo'ladi.

Bulutlar orasidan quyosh kulib qaradi.

- Jonli va jonsiz narsalarga xos xususiyatlar, harakat va holatlar odamlarga ko'chirilsa ham metafora hosil bo'ladi.

Bolalar yopishavergach xaltani ochishga majbur bo'ldi-da, labini burib vaysay boshladi.

Lekin Antik davrda metaforada ma'no ko'chishiga boshqacha yondashuv bilan qaralgan. Kvintilianga ko'ra, metafora quyidagi hollarda ishga tushadi:

- O'z nomiga ega bo'lmagan predmetni nomlash uchun.

Masalan: *qattiq odam*. Odamning qattiq yoki yumshog'i bo'lmaydi. Faqat insonlarning harakteriga qarab yumshoq fe'lli va qattiq fe'lli insonlarga ajratamiz. Agar insonning harakterida ziqnalik, hasislik, qizg'anchilik kabi fazilatlar bo'lsa bunday insonlarga nisbatan metafora yo'li bilan qattiq odam ta'rifi beriladi.

- Obektga nisbatan munosabatni ifodalash, baxolash uchun.

Bu usul nutqni jozibador qilishga ta'sir ko'rsatadi ya'ni baxolovchi metafora deb ham nomlanadi. Masalan: *nafrati olovlandi*. Bunda ham metafora ma'noni kuchaytirishga xizmat qilyapti. Bunda metaforalar dekorativ ma'noni ifodalaydi. Nutqni yana ham jozibali qilib, muallifning badiiy-estetik mahoratini ko'rsatib beradi. Masalan: *so'zamollik daryolari*⁷. Ushbu misolda so'zamollik so'zga chechanlik, so'z ustasi ekanligi uslubiy boyoqdorlik asosida ifodalanyapti.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ko'chma ma'no biror so'z leksik ma'nosi referenti bilan obyektiv borliqdagi narsa, voqelik, harakat, holat, belgi yoki sezgi kabilardan biri aloqador yoki munosabatda bo'lganligi uchun, uning nomida atalib ketishi orqali yuzaga keladi. Ya'ni so'z leksik ma'nosi ikkinchi bir leksik ma'noni hosil qiladi. Shu sababli keyingi leksik ma'no metafora deb ataladi⁸.

So'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi, ular ifodalagan ikkinchi bir leksik ma'nolar to'g'risida juda ko'plab olimlar jumladan, prof. M.Mirtojiyev va I.Shukurov, Z.Tohirov, D.Xo'jayeva; shuningdek, prof. Sh.Rahmatullayev va

⁷ Прокопчук О.Г. Развитие представлений о метафоре в античной риторической традиции. (Аристотель и Квинтилиан). Веснік Беларускага дзяржаўнага ўніверсітэта. Серыя 4, Філалогія. Журналістыка. Педагогіка. - 2009. - N 2. - С. 75-78.

⁸ Xaytboyeva.M., "XARAKTER-XUSUSIYAT ASOSIDAGI METAFORALARNI O'RGATISH USULLARI" BMI.-T.;2018.7-B.

R.Yunusovlar chuqur ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. Hozirgi zamon tilshunoslari ham ko'chim turlari,xususan, metaforalarning turli xil jixatlarini ilmiy tadqiq etib kelmoqdalar. Biz o'ylaymizki, bugun tilshunoslik sohasida qilanayotgan har qanday izlanishlar kelgusidagi ilmiy ishlar uchun asos vazifasini o'taydi.

REFERENCES

1. Дорофеева А.А. Что скрывается в тайне метафоры? (О подходах к изучению метафоры западными учеными в XX в.) / Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. № 4.
2. Erkaboyeva.N., O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami.-T.;"LRSSON PRESS", 2017,87-88 b.
3. Haydarova U. Yapon mumtoz adabiy manbalarida qo'llangan metaforalar va ularning diniy-falsafiy talqini //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 1. – С. 950-958.
4. Галимуллина, Л. (2021). Некоторые особенности в переводе фразеологических единиц с английского языка на узбекский язык. Общество и инновации, 2(8/S), 205-213.
5. Махмараимова Шохиста Тухташевна “Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи” филология фанлари доктори (dsc) диссертацияси автореферати, Самарқанд – 2020,15-b.
6. Mahmudov.N., Odilov.Y., Ziyodullayeva.G., O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfı va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassaslari o'quvchilari uchun darslik.-T,2018, 79-b.
7. Nurmonov.A. , Sobirov.A., Qosimova.N., Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T: Ilm ziyo., 2013y,190-b.
8. Прокопчук О.Г. Развитие представлений о метафоре в античной риторической традиции. (Аристотель и Квинтилиан). Весник Беларускага дзяржаўнага университета. Серыя 4, Филология. Журналистыка. Педагогика. - 2009. - N 2. - С. 75-78.
9. Quintilianus M. Fabius. Institutiones oratoriae. Libri duodecim. Lipsiae, 1887. (VIII, 6, 6).
10. Sultonova O'g'ilshod (2020) "Ilm sarchashmalari", Urganch davlat universitetining ilmiy-metodik jurnali - Urganch, 2020-yil 8-son 190-193 betlar.
11. Xaytboyeva.M., “Xarakter-hususiyat asosidagi metaforalarni o'rgatish usullari” BMI.-T.;2018.7-b.